

O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA AXBOROTDAN FOYDALANISH
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7764737>



ELSEVIER



Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova
Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi,
e.mirzajonova@gmail.com
Rasuljon Raxmonali o'g'li Tilavoldiyev
Farg'ona davlat universiteti
II-bosqich magistranti.
Farg'ona, O'zbekiston.



Received: 22-03-2023
Accepted: 22-03-2023
Published: 22-03-2023

Abstract: Ushbu maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, axborot madaniyati, axborotdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, o'smir yoshlar o'rtasida axborotlardan foydalanishda mavjud muammolar va axborot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos uslublari, uning yoshlar kamolotidagi tutgan o'rni to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.
Keywords: axborot, axborot madaniyati, informatika, kibernetika, texnik qurilmalar, axborotlashgan jamiyat, o'smirlik davri, internet

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-03-2023
Accepted: 22-03-2023
Published: 22-03-2023

Abstract: В данной статье формирование культуры использования информации у школьников-подростков, информационная культура, рекомендации по использованию информации, существующие проблемы в использовании информации подростками и конкретные методы формирования информационной культуры, ее влияние на развитие молодежи Приведена информация о должности.
Keywords: информация, информационная культура, информатика, кибернетика, технические устройства, информационное общество, подростковый возраст, интернет.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-03-2023
Accepted: 22-03-2023
Published: 22-03-2023

Abstract: In this article, the formation of the culture of information use in teenage students, information culture, recommendations on the use of information, the existing problems in the use of information among adolescents and the specific methods of the formation of information culture, its influence on the development of young people Information about the position is provided.
Keywords: information, information culture, informatics, cybernetics, technical devices, information society, adolescence, internet

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Tadqiqotning maqsadi: O'smir yoshdagi o'quvchilarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yaratish.

Tadqiqotning dolzarbligi: Vatanimiz taraqqiyotining hozirgi o'ta mas'uliyatli davrida biz o'z oldimizga qo'ygan vazifalar juda murakkab bo'lib, ularni to'liq va sifatli amalga oshirish uchun barchamiz bir bo'lib harakat qilishimiz kerak.¹³⁶ Mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi, dunyo hamjamiyatida munosib

¹³⁶ "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent-O'zbekiston-2017.37-bet.

o'rin egallashi fuqorolarimizga bevosita bog'liq bo'lib, ayniqsa yosh avlodning erkin va mustaqil fikrlashi, o'z qarashlariga ega ekanligi hamda texnologiya va axborotlar asri bo'lgan ushbu davrda turli noto'g'ri yo'llarga og'masdan voyaga yetishi biz uchun juda muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun o'smirlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri desak adashmagan bo'lamiz. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan va juda katta etibor qaratilayotgan masalalardan biri deya etirof etilayotgan o'smirlar masalasi unga oid bo'lgan qaror, farmon va farmoishlarning ishlab chiqilayotganligi ham mavzuning naqadar dolzarb ekanligini isbotlaydi.

Кирриш. «Informatika va axborot texnologiyalari» yildan yilga kishilik faoliyatining turli soxalarida yanada keng qo'llanilib borilmoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad - jamiyat va inson butun hayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarni hal etishdir. Jamiyatni axborotlashtirish deganda inson faoliyatining barcha ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarida boyitilgan bilimlar, ishonchli axborotlar bilan to'liq va o'z vaqtida foydalanishni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni tadbir etish tushuniladi. Axborot xuddi an'anaviy resurslar kabi izlab topish, tarqatish mumkin bo'lgan resursga aylandi. Ushbu resursning foydalaniladigan umumiy hajmi kelgusida davlatning strategik imkoniyatini, shunindek mudofaa qobiliyatini ham belgilab beradi. Shunday qilib axborot resurslari axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning asosiy qismi bulibgina qolmay, balki milliy daromad manbai hamdir.

Jamiyatimizning turli sohaları rivojlangan bugungi kunda axborotlarning sohalararo, tashkilotlararo almashinuvi masalasi yangi-yangi texnika va texnologiyalar qo'llash zaruriyatini tug'dirmoqda. Respublikamiz mustaqilligi va uning jahon hamjamiyatidagi obro'yining ortib borayotganligi, axborotlarning nafaqat davlatimiz ichida, balki dunyodagi boshqa davlatlar bilan almashinuvi masalasini qo'ymoqda. Bu axborotlar respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yuksaltirishga qaratilgan.

Axborot madaniyati - umumiy madaniyatning bir qismi sifatida insonni axborotlar oqimiga to'g'ri yo'l topishi uchun xizmat qiladi. Axborot madaniyati insonning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq bo'ladi. U insonning ijodiy qobiliyati mahsuli bo'lib, quyidagilarda o'z aksini topadi:

- texnik qurilmalar (telefon, kompyuter tarmoqlari) ni ishlatish ko'nikmasida;
- o'z faoliyatida kompyuter axborot texnologiyalarini ishlatish qobiliyatida;
- turli manbalar (davriy nashrlar va elektron kommunikatsiyalar) dan axborotlarni olish, uni kerakli shaklda ko'rsatish, hamda samarali ishlatish mahoratida va hokazo.

Axborot madaniyati informatika, kibernetika, axborot nazariyasi, matematika,

ma'lumotlar bazasini loyixalash nazariyasi va boshqa fanlarning bilimlariga tayangan holda paydo bo'ldi. Axborot madaniyatining tarkibiy qismi bu yangi axborot texnologiyalarini bilishdan va ularni qo'llashdan iborat bo'ladi.

Axborotlashgan jamiyat - faoliyat ko'rsatuvchilarning ko'pchiligi axborotni, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan band bo'lgan jamiyatdir.

Hozirgi kunda barcha axborotlarni nisbiy holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Texnik axborot;
2. Agrobiologik axborot;
3. Siyosiy axborot;
4. Huquqiy axborot;
5. Iqtisodiy axborot va boshqalar.

Axborotning turlari uzaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi. Bu axborotlar ichida iqtisodiy axborot asosiy hisoblanib, ular hajmining 80% ni tashkil qiladi.

Axborot turli shakl (masalan, matn, tasvir yoki statistika ma'lumotlari, elektron yoki qog'oz ko'rinish) larda mavjud bo'lib, u onlayn fayl va portallarda, virtual va real kutubxonalarda, hujjatlar jamlanmasida, turli ma'lumotlar bazasida, arxivlar, muzeylar va hokazolarda saqlanadi. Biroq, turli axborot manbalari taqdim etgan axborot ishonchli yoki ishonchsiz bo'lishi mumkin. Demak, axborotni izlashga kirishishdan avval, yoshlar o'zlari uchun aynan qanday mazmundagi axborot zarurligini tushunishi lozim. Axborotga bo'lgan ehtiyoj ma'lum foydalanuvchi (yoki foydalanuvchilar guruhi) ning ma'lum mavzuga oid ma'lumotga bo'lgan ehtiyojidir. Axborot manbasini baholashda avvalo inson undan axborotni nima maqsadda olayotganini aniqlashi zarur. Mazkur jarayon ishonchli axborot manbalarini aniqlashga yordam beradi.

Hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni ta'qiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi.

Ma'lumki, hozirgi zamon yoshlarining hayotiy tushuncha va tasavvurlarini, asosan, internet shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'ymoqda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigan axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi. Shuning

uchun ham mazkur muammo faqatgina ma'lum bir davlat chegaralaridan chiqib, global xarakterga ega bo'ldi.

Globalashayotgan jamiyatda axborot hatto xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo'ladilar. Bu esa hatto mamlakatlar o'rtasida yoshlarni buzg'unchi yoki bunyodkor shaxs sifatida shakllantirishda manfaat jihatidan o'ziga tegishli qilib tarbiyalash istagini oshiradi va bu mamlakatlararo mafkuraviy kurash shaklini ham namoyon etadi. Shunga ko'ra ko'pgina davlatlarda globalashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, ular yagona jahon uyg'unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Shu o'rinda axborot manbalari masalasi chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa, uni uch toifaga ajratish mumkin. Tajribali foydalanuvchi turli xil axborot manbalarining bir nechtasini tanlaydi va zaruratga ko'ra ulardan foydalanadi.

Birlamchi manbalar bu asl manbalar bo'lib, ular axborotning izohlanishini nazarda tutmaydi. Bu tadqiqot hisobotlari, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, amaliy san'at asarlari, qo'lyozmalar, fotosuratlar, kundaliklar, shaxsiy maktublar, og'zaki hikoya, intervyu yoki diplomatik hujjatlar bo'lishi mumkin. Aksariyat holatlarda va ma'lum vaziyatlarda imkon qadar birlamchi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkilamchi manbalar axborotni yetkazib beruvchilardir. Bu holatda axborot o'zgarishi, tahlil qilinishi yoki umumlashtirilishi mumkin (masalan, ilmiy kitoblar, jurnallar, tanqidiy tahlil yoki ma'lumotlar talqini). Foydalanishga tavsiya etiladigan birlamchi manbalar ikkilamchi manbalarga nisbatan har doim ham o'zida nufuzli yoki xolis axborotni saqlamaydi. Axborotni sub'ektiv baholash holatlarini, tekshirilgan ikkilamchi manbalardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Ikkilamchi manba muayyan soha yoki ma'lum vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin.

Uchlamchi manbalar bu tashkil etilgan va o'zida birlamchi hamda ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, o'zida mujassamlagan (masalan, referatlar, bibliografiya, turli qo'llanmalar, ensiklopediyalar, ko'rsatkichlar, xronologik jadvallar, ma'lumotlar bazasi va hokazo) manbalardir.

O'smirlik davri insonni bolalikdan yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oraliq'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

O'smirlik davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ham ataladi. O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil an'analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kasb etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlari o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men» ning ahamiyati ortadi. O'smir o'z hayotini, xavfsizligini ta'minlash borasida nisbatan mustaqillikka erishadi. Endi u o'zini o'zi himoya qila olishi, lozim bo'lsa, o'zi imkoniyatlari darajasida mehnat qilib, yetarli darajada daromad qilishi, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda o'zi qondira olishi mumkin bo'ladi.

Metodlari. Hozirgi davrda o'smirlarni voyaga yetkazishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

Tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur. O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari:

- fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani;
- ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani;
- o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi;
- ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;
- o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;
- oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;
- o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Maktabda va oilada mustaqil faoliyatga keng imkoniyatlar bo'lsa, o'quvchi muayyan vazifa va topshiriqlarni, bajara boshlaydi. Natijada o'smiring ijtimoiy mavqei ortib, faoliyati takomillashib, psixikasi har tomonlama rivojlanib boradi.

Hozirgi yoshlar uchun raqamli texnika bilan ishlash muammo emas. Ular kompyuterda yangi imkoniyatlarini muammosiz o'rgana oladilar. Faqat ularni o'z-o'zini rivojlantirishning aktiv faoliyatiga undash, o'zligini anglash, o'zini ko'rsata bilish, o'zini takomillashtirishga ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

O'smir yoshlarni axborotlashgan jamiyat sharoitlariga va hayotga tayyorlashni amalga oshiradigan quyidagi masalalar dolzarb hisoblanadi:

- Katta xajmdagi axborot bilan ishlash sharoitida mantiqiy fikrlay olish, axborotni tanlash va javobgarlikni o'z zimmasiga olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish;

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o'quv materialini ustida mustakil ishlash (axborotni izlash, qayta ishlash, har xil axborot manbalaridan foydalanish, xujjatlar bilan ishlash) ko'nikmalarini shakllantirish;

- O'quv bilimlari va kundalik xayot hodisalari orasidagi bog'liqlikni topish va talqin qila olish kobiliyatlarini rivojlantirish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalar yordamida no'anaviy masalalar va muammolarni yecha olish;

- Har xil nuqtai nazarlarni hisobga olish, ularning asoslarini taxlil qila olish, omma orasida chiqish qila olish, munozaralarda qatnashish, aloqalar o'rnatish, davom ettirish va ularni mustaxkamlash, jamoada ishlash va xamkorlik qila olish kabi moslanuvchanlikni shakllantirish.

Bugungi kunda kiber olamda noto'g'ri axborotning ko'payishi, ayniqsa internetda tobora ommalashayotgan bloglardagi asosiy xabar va ma'lumotlarning sub'ektiv qarashlardan iboratligi bilan ham bog'liq. Sub'ektivlik esa axborot noto'g'riligining muhim omili bo'ladi. Saytlar hozir internet olamida ommaviy axborot vositasi vazifasini bajarmoqda. Bunday jonli kundaliklarning doimiy o'quvchilari soni ayrim ro'yxatdan o'tgan milliy saytlarimiz auditoriyasidan-da ko'proq. Shunday ekan, bloglarda e'lon qilingan har qanaqa fikr, qarash undan foydalanuvchilar tomonidan axborot sifatida qabul qilinishi va o'zlashtirilishini unutmazlik kerak. Shu nuqtai nazardan shaxsiy qarashlarni ifodalashga berilib ketgan ayrim saytlar internetda noto'g'ri axborot tarqalishida sababchi bo'lmoqdalar. Natijada bundan avvalo, o'quvchi-yoshlarimiz ziyon ko'rishmoqda.

Xulosa. Mamlakatimizda jismonan sog'lom, ma'nan yetuk avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ularni zamonaviy axborot texnologiyalarini

puxta o'zlashtirishi uchun yaratilayotgan sharoitlarga alohida e'tibor qaratilayapdi. Shunga qaramay zo'ravonlik, giyohvandlik kabi illatlarni targ'ib etuvchi ayrim veb-saytlar yoshlar tarbiyasi, milliy ma'naviyatimiz, tinch va osoyishta hayotimizga tahdid solayotgani sir emas. Bu esa yoshlarning internetdan foydalanish ko'nikmasi, madaniyatini to'g'ri shakllantirishni taqozo etmoqda.

Hozirda internetdan foydalanuvchilarning salmoqli qismini yoshlar tashkil etadi. Internet axborotlaridan to'g'ri foydalanmaslik oqibatida ayrim yoshlarimizning turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgani barchamizni tashvishga solidi. Shu bois yoshlarda internetdan maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish, yoshlarda internet axborotlaridan to'g'ri va o'rinli foydalanish, malakasini oshirish, salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlardan himoyalash, xavfsiz internet muhitini shakllantirish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishning ahamiyati katta.

Yoshlarning internet tarmog'idan to'g'ri foydalanish borasidagi bilim va tushunchalarini yanada boyitishga yordam berdigan oila, mahalla, ta'lim maskani o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, yoshlarning qiziqish va intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini yanada oshirish masalalari yuzasidan tadbirlar tashkillash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent-O'zbekiston-2017.37-bet.
2. Маматова Я., Сулайманова С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёт йўлида. Ўқув кўлланма. [Extremum-press](#), 2015. – 94 б.
3. Яхё, Мухаммад Амин. Интернетдаги таҳдидлардан химоя. Ёрдамчи ўқув кўлланма. Movarounnaхr, 2016. – 672 б.
4. Федоров А.В. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. – М., 2018. 5. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жихатлари. Ўқув-амалий кўлланма. – Extremum-press, 2017. – 142 б.
5. Mirzajonova E., Kiselev S. Motor sequencing training has a positive effect on sensorimotor functions in preschool children //Psychophysiology. – 2020. – т. 57. – с. s71-s71.
6. Мирзажонова Э. Т. и др. Системность социокультурной адаптации детей с особыми потребностями как условие эффективности //Актуальные вопросы современной психологии, конфликтологии и управления: взгляд молодых исследователей. – 2020. – С. 5-15.

7. Mirzajonova E., Kiselev S. Weakness of Memory in Delayed Recall Condition is Specific Deficit in Children with ADHD //Annals of Neurology. – 2020. – Т. 88. – С. S69-S69.

8. Mirzajonova E., Kiselev S. AGE-RELATED DIFFERENCES IN VISUAL OBJECT RECOGNITION IN CHILDREN //Psychophysiology. – 2020. – Т. 57. – С. S38-S38.

9. Mirzajonova E., Kiselev S. Child with hemorrhagic stroke in the right fronto-parieto-temporal area benefited from visuospatial therapy //Quality of life research. – 2020. – Т. 29. – №. SUPPL 1. – С. S189-S189.

10. Mirzajonova E., Kiselev S. Yoga training as an effective approach for improving the executive abilities in children with ADHD //Quality of life research. – 2020. – Т. 29. – №. SUPPL 1. – С. S183-S183.

10. Mirzajonova E. ACTUAL PROBLEMS OF INCLUSION IN THE CONTEXT OF SOCIAL PARTNERSHIP. Uzbek Scholar Journal. 2022/5/28. 96-101 pages.

11. Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna, Xomidov Abdullajon Adxam o'g'li //ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11 | Issue-1 | 2023. 217-225 pages.

12. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Odinaxon Rahmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.

13. Abdukadirova L. Y., Mirzajonova E. T. The importance of reading competencies in the context of the “industry 4.0” industrial revolution //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 205-210.

14. А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. 23 rd January, 2023. – Canada, Ottawa. 136-140 pages.

15. Абдулаева А.Р. //ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И МУНИЦИПАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ// Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 6. – С. 26-29.

16. Rustamovna A.A. //BO'LAJAK HARBIY KADRLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILAVIY MUHIT TA'SIRINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI// – 2022.

17. Рустамовна А.А. //СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СЕМЕЙНОЕ ОКРУЖЕНИЕ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ

ВОСПИТАНИИ БУДУЩИХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ// Зона конференций. - 2022. - С. 43-45.

18. Абдуллаева А. //ОИЛАНИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ФАКТОРЛАРНИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// МУАЛЛИМ ЖУРНАЛИ. 11 ЖИЛД. 2022 ЙИЛ.

19. А.Р.Абдуллаева //ОИЛАДА АЖРИМЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА НИКОҲ МОТИВЛАРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA 14-SON ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 20.12.2022. 1132-1138 бетлар.

20. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna //The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences. January 10 th, 2022. 69-70

21. Ibrokhimjonovna T.N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT // Academia Globe: Inderscience Research. - 2021. - Т. 2. - №. 03. - С. 1-2.

22. Тошболтаева, Нодира Иброхимжоновна. "Важные аспекты упражнений в умственной деятельности психологическая интерпретация." INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION 1.5 (2020): 97-99.

23. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ТАФАККУРНИНГ АҲАМИЯТЛИЛИГИ МАСАЛАЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5 (100), часть 2. Декабрь, 2022. 196-199 стр.

24. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДА ШАХСНИ ТАРАҚҚИЙ ЭТИШИ// JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December). 472-475.

25. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна, Тошболтаев Салохиддин Хамидуллаевич //МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЖАРАЁНИНИ ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ТАҲЛИЛИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 6 (100), часть 2. январь, 2023 г. 114-118 стр.

26. G'aniyeva Xalimaxon Akhmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 pages.

27. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN

YOUNG PEOPLE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 pages.

28. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna, Tojimamatov Jamshid //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 1053-1058 pages.